



Zulxumor SAMATOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti
E-mail:zulxumorqosimova@gmail.com

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

ПОЕТИК ДИСКУРСДА АЛОГИЗМ ТАМОЙИЛИГА АСОСЛАНГАН УСЛУБИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ ЛИНГВОСТИЛИК ТАДҚИҚИ

Аннотация

Ushbu maqolada poetik diskursda alogizm tamoyiliga asoslangan uslubiy vositalarning lingvostilik xususiyatlari tahlil qilinadi. Alogizm – bu mantiq qonunlariga zid, lekin estetik va semantik jihatdan ma’no yuklay oladigan badiiy uslubiy vosita sifatida ko’riladi. Tadqiqotda metafora, oksimoron, paradoks, antanaklasis, zevgsma kabi alogik vositalarning she’riy matnlardagi funksional yuki, stilistik kuchi hamda konnotativ semantikasi o’rganilgan. Shuningdek, bu vositalarning ingliz adabiyoti postmodernizm poeziyasida qanday ishlatilishi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: alogizm, poetik diskurs, stilistik vosita, semantika, badiiy tasvir, metafora, oksimoron, paradoks, lingvostilistik tahlil.

ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ, ОСНОВАННЫХ НА ПРИНЦИПЕ АЛОГИЗМА В ПОЭТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В статье рассматриваются лингвостилистические особенности стилистических средств, основанных на принципе алогизма в поэтическом дискурсе. Алогизм трактуется как стилистический прием, противоречащий логике, но создающий эстетическую и семантическую выразительность. В исследовании анализируются такие средства, как метафора, оксюморон, парадокс, антанаклasis и зевгма. Также проанализировано использование этих средств в поэзии постмодернизма английской литературы.

Ключевые слова: алогизм, поэтический дискурс, стилистические средства, семантика, художественное изображение, метафора, оксюморон, парадокс, лингвостилистический анализ.

LINGUOSTYLISTIC STUDY OF STYLISTIC DEVICES BASED ON THE PRINCIPLE OF ALOGISM IN POETIC DISCOURSE

Annotation

This article explores the linguo-stylistic features of stylistic devices based on the principle of alogism in poetic discourse. Alogism is viewed as a stylistic phenomenon that contradicts logical reasoning while achieving expressive and aesthetic effects. The study examines devices such as metaphor, oxymoron, paradox, antanaclasses, and zeugma in terms of their semantic and functional roles in poetry. The use of these devices in postmodern English poetry has also been analyzed.

Key words: alogism, poetic discourse, stylistic device, semantics, literary imagery, metaphor, oxymoron, paradox, linguo-stylistic analysis.

Kirish. Lingvistik nuqtai nazardan qaralganda diskurs murakkab kommunikativ vosita bo’lib matnni tushunish uchun zarur bo’lgan qo’shimcha lingvistik omillar jumladan g’oyalari, adresantning maqsadlari, munosabatlarini qamrab oladi.

“Diskurs” atamasi ilk bor amrekialik lingvist Z.Xarrisning 1952- yilda chop etilgan “Diskurs tahlili” deb atalgan ilmiy maqolasida qo’llanilgan. Tilshunos olimlar diskurs atamasiga turlicha ta’rif beradilar, diskurs lotinchada “diskursus” – “muhokama” so’zidan olingan bo’lib hissiy, bevosita, muhakama orqali shakllanadigan mantiqiy dalil-isbotli bilim demakdir. YE. S. Kubryakova fikriga ko’ra “tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida dikursing umumiy qabul qilingan biror bir ta’rifi mavjud emas” [1]. Y. S. Stepanov diskursni “til ichidagi til” sifatida ko’rib uni dunyo, fakt, sabab tushunchalari bilan bog’laydi [2]. Robert de Bogrand ta’kidlaydiki, real dunyoda til o’z ichida o’zicha mavjud emas, misol uchun “Siz kanal sohilida sayr etayotgan golland tilini, bir chashka choy ichiq dam olayotgan ingliz tilini yoki qandaydir ish bilan band bo’lib turgan nemis tilini topolmaysiz. Siz faqat diskurslarni, ya’ni real kommunikativ voqealarni topasiz” [3]. Golland olimlaridan biri T.van Deyk ham diskursni kommunikativ hodisa sifatida ko’radi va

diskurs - tilning ishlatilishi, fikr va e’tiqodlarning berilishi va nutqiy ta’sirdir deya izohlaydi[4].

O’zbek tilshunos olimlaridan A. Pardaev diskurni so’zlovchi va tinglovchining o’zaro fikr almashish, bir-biriga ta’sir ko’rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan vositalardan o’zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda foydalanish jarayoni hisoblanadi.

Bazi tilshunoslar “diskurs” va “matn” tushunchalarini farqlashga harakat qilishib, bu kategoriyalar o’rtasida o’zaro bog’lanishni aniqlamoqchi bo’lganlar. Ostman J. va Virtanen T. diskursni “matn plyus situatsiya”, matnni esa “diskurs minus situatsiya” qabilida tasniflashni taklif qilganlar [5].

Ko’plab funksional yo’naltirilgan tadqiqotlarda diskurs va matnni bir qancha qarama-qarshi kriteriyalar ya’ni fuksionallik – strukturaviylik, jarayon – produkt tamoyillari bo’yicha oppozitiv qo’yish tendensiyasi kuzatiladi. M.L. Makarov struktur matn – mahsulot, funksional diskurs – jarayon deb farqlaydi [6].

Poetik matn so’zni san’at darajasida ishlatib nasriy tilga nisbatan o’ziga xos ritmga ega. Poetik asarlarda til hissiy – estetik ta’sirini shakllantiradi va poetik diskurs kayfiyat yuqtirish harakteriga ega. Bundan tashqari poetik asar o’quvchining kognitiv – estetik javobini rag’batlantiradi,

ya'ni muallifning dunyoqarashiga nisbatan o'quvchida shaxsiy omillar ta'sirida shakllangan baholovchi reaksiyalarning paydo bo'lishi uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda poetik diskurs – bu muallif va o'quvchi o'rtasidagi yuksak poetik muloqot jarayoni bo'lib unda muallifning hodisalarga emotsional munosabati jamiyatning madaniy, estetik, tarixiy meyorlari va qadriyatlarini hisobga olgan holda shakllanadi[7]. Poetik diskursnin asosiy talabi shundaki u badiiy dunyoqarashni aks ettirishi kerak bo'lib u she'riy shaklda aks etadi chunki unda koseptual axborot darajasi faktografik axborotdan ustun turadi.

Obraz ijodning asosiy tamal toshi bo'lib u poetikaning muhim tushunchasidir[8]. Obrazlilik, shubhasiz, poetik diskursning eng muhim xususiyati hisoblanadi va ko'plab tilshunos olimlar jumladan A.A. Potebnya, V.B.Shklovskiy, V.V. Vinogradov, R. Yakobson, G.O. Vinokur va boshqalar bu muammoni o'rganishgan. Poetik diskurs matnining modelini yaratishda barcha tasviriy ifodaviy vositalar istisnosiz qatnashishi mumkin.

Poetik diskursda stilistik vositalarning ishlatilishi she'ni nafaqat badiiy jihatdan boyitadi, balki uning ma'no qatlamlarini oshirib o'quvchida sezilarli darajada ta'sir va chuqur hissiyot uyg'otadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki tadqiqot ishimizning obyekti bo'lgan alogizm tamoyiliga asoslangan uslubiy vositalar ham poetik diskursning samaradorligini oshiradi.

Amerika postmodernizm poeziyasining yorqin namoyondasi Charlz Bernshteyn (Charles Bernstein) til vositalari orqali poetik shakl va mazmunga eksperiment tarzida yondashish, semantik sathlar chegarasidan chiqish hamda o'quvchi kutgan an'anaviy she'riy andozalarga mos tushmaydigan ijodi bilan ajralib turadi. Bernstein poetikasining asosiy mezonlari kinoya (ironiya) va parodiya bo'lib, aynan mantiqiy yaxlitlikka putur yetkazish taktikasi, xususan giperbola, litota, turli paradoksal iboralar bilan ishlashga moyillik kuzatiladi. Uning she'rlari ko'pincha satirik va provokatsion ohangda yozilgan bo'lib, an'anaviy poetik qarashlarni tanqid ostiga oladi va she'riyatning ideologik, ijtimoiy hamda estetik asoslarini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Bernshteyn ijodiga nazar tashlar ekanmiz, alogizmga asoslangan uslubiy vositalarni juda ijodkorona qo'llashi natijasi o'laroq o'quvchi va ijod tili o'rtasida pragmatik interaktsiyasiyaning ajoyib ko'rinishini yaratishga muvaffaq bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Xususan:

Not for all the whiskey in heaven
Not for all the flies in Vermont
Not for all the tears in the basement
Not for a million trips to Mars
Not if you paid me in diamonds
Not if you paid me in pearls

Not if you gave me your pinky ring
Not if you gave me your curls
Not for all the fire in hell
Not for all the blue in the sky
Not for an empire of my own
Not even for peace of mind
No, never, I'll never stop loving you
Not till my heart beats its last
And even then in my words and my songs
I will love you all over again (All the Whiskey in Heaven)" (Charles Bernstein)

-she'r tuzilishi va ohangiga ko'ra sevgi tarannum etgan an'anaviy misralarni eslatadi, ammo unda ham postmodern uslubga xos alogik elementlar mujassam. She'ning ilk uch bandida litota va giperbolaning tizimli uyg'unlashuvi orqali qasamyod uslubidagi izhorga duch kelamiz: lirik qahramon hech qachon o'z sevgisidan voz kechmasligini turli mubolag'ali qiyoslar bilan ifoda qiladi. Masalan, har bir satr "Not for (all) [X]" shaklida boshlangan. "Not for all the whiskey in heaven" – samo liq bo'lgan viski evaziga ham (ya'ni mislsiz katta boylik evaziga ham) men seni sevishdan voz kechmayman, degan ma'no; osmonda viski bo'lishi mumkin emas, bu haddan ziyod bo'rttirilgan ifoda sifatida giperbolani moxirona ifodasidir – u esa o'z navbatida "not for all the flies in Vermont" (Vermontdagi barcha pashshalar evaziga ham) kabi yana ham kulgiliroq mubolag'a bilan qorishib, she'r ohangiga pragmatik o'ynoqilik bag'ishlaydi. Ya'ni, birinchi misrada garchi ulkan boylik (viski – qimmatbaho ichimlik ramzi) eslatilsa, ikkinchi misrada arzimmas narsa (pashsha) zikr qilinadi – bu ham kontrast, ham paradoksal ohang berib, implitsit oksymoronning gap sathida faollashganidir.

She'r davomida "Not if you paid me in diamonds / ... in pearls" kabi jumalalarda yana qimmatbaho narsalardan voz kechish turg'un iboralar orqali ifodalanmoqda. Misralarning bu tarzda anaforik takrorlar orqali davom etishi she'rga qasamyod ohangini berishi bilan bir qatorda yuzaga chiqqan dam jiddiy, dam o'ynoqi ohanglar uyg'unligida kuchli kinoyaviy ekspressiya hosil qiladi. Bir tarafdin lirik qahramon sevgisini ulug'lamoqda, ikkinchi tarafdin uning taqqoslari absurd darajada mantiqiy yaxlitlikka ega emas – bu tipik postmodern ironik usulning yorqin namunasidir.

"All the Whiskey in Heaven" she'ri bir tomondan, u chin sevgi g'oyasini tarannum etsa (ekspressiv va poetik vazifa), boshqa tomondan, muhabbatni ifoda etish usullarining o'zini kulgiga olganday tuyuladi, demak, she'r kommunikativ-pragmatik jihatdan ikki xil zid qutb bilan qabul qilinishi mumkin: ham jiddiy (romantik), ham hajviy (kinoyaviy), biroq postmodernizm an'analarga xos ravishda o'quvchi o'z didi va idroki bilan she'ni qanday talqin qilishini o'zi hal qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Kubryakova.Y. S. Discourse Analysis. Cambridge University Press.2000p 6.
2. Степанов Ю.С. Язык и метод. К современной философии языка / Ю.С.Степанов. М. "Языки русской культуры", 1998.С. 784
3. Beaugrande de R. The Story of Discourse Analysis / R. de Beaugrande // Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. – London-Thousand Oaks– New Delhi: SAGE Publications, 1997. Vol.1.– P.35–63.
4. Dijk van T.A. The Study of Discourse. Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction / van T.A.Dijk.– London Thousand Oaks– New Delhi: SAGE Publications.– 1997.– Vol.1.– P. 352
5. Östman J. O., Virtanen T. Text and discourse linguistics //Discursive pragmatics. – John Benjamins Publishing Company, 2011. – С. 266-285.
6. Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе / М.Л.Макаров. – Тверь: Изд-во Тверского госуд. университета, 1998.– С.199
7. Тляшев Н.В. Специфика поэтического дискурса в англоязычной и русскоязычной лингвокультурных традициях // Доклады Башкирского университета, 2020. Том 5. № 4. С. 295 (291-299.)
8. Реформатский А.А. Лингвистика и поэтика / А.А. Реформатский. М.: Наука, 1987. С.263